



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI
TRANSPORT NAZORATI INSPEKSIYASI

BUYRUQ

2025-yil 29-sentabr

505-K-son

Toshkent sh.

“Yilning eng yaxshi xodimi” tanlovini o'tkazish va tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

Transport nazorati inspeksiyasi boshlig'ining 2025-yil 2-oktabrda tasdiqlagan chora-tadbirlar rejasining 8-bandiga asosan, Transport nazorati inspeksiyasi tarkibiy va hududiy bo'linmalari xodimlariga yuklatilgan mehnat vazifalarini bajarishda ularning mas'uliyatini yanada oshirish, xodimlarning halol mehnati uchun rag'batlantirish, xodimlar o'rtasida sog'lom raqabot muhitini shakllantirish hamda o'z kasbining eng yaxshilarini aniqlash orqali mehnat intizomini mustahkamlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Transport nazorati inspeksiyasi tarkibiy va hududiy bo'linmalari xodimlari o'rtasida “Yilning eng yaxshi xodimi” tanlovini o'tkazish va tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;
tanlovni o'tkazish va yakuniy xulosa berish komissiyasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Transport nazorati inspeksiyasining eng yaxshi xodimi tanlovi yakuni bo'yicha g'olib deb topilganlar har yili Transport nazorati inspeksiyasi tashkil etilgan kunda rag'batlantirish tashkillashtirilsin.
3. Eng yaxshi xodim nominatsiyasida g'olib deb topilgan xodimlar budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan bir oylik ish haqi miqdori rag'batlantirish tartibi belgilansin.
4. Moliya-iqtisod bo'limi (G'.Nurmatov) budjetdan tashqari jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli to'lovlarni amalga oshirilsin.
5. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (A.Sodiqov) ushbu buyruqni mas'ul ijrochilarga yetkazsin.
6. Mazkur buyruq ijrosi nazorat qilish Axborot-tahlil va ijro nazorati bo'limi (D.Axunjanov)ga yuklatilsin.

Boshliq



J.Karimov